

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Samarqand viloyati
Adliya boshqarmasi tomonidan
2022-yil "17" may



- son bilan

**"DAVLAT RO'YXATIGA
OLINGAN"**

O'zbekiston talabalar sporti
Assotsiatsiyasining
2022-yil 12 – yanvardagi
16 - son qarori bilan



TASDIQLANGAN"

**O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasining Toshkent
davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand
filiali sport klubi
NIZOMI**

Toshkent-2022 yil

207346215

O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasining Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali sport klubi

Nizomi

I. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasining Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali sport klubi (keyingi o'rinlarda Sport klubi deb yuritiladi) Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasi deb yuritiladi) talabalari, professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, magistr va katta ilmiy xodim-izlanuvchilari hamda ishchi-xizmatchilarining qiziqishi va ehtiyojlariga qarab, jamoatchilik boshqaruvi asosida, teng huquqlar bilan birlashtiradigan, talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, rivojlantirish hamda yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash, shuningdek o'z a'zolarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanib, uning tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasidir.

1.2. Sport klubi Assotsiatsiyaning quyi bo'limi hisoblanib, u Assotsiatsiyaning Ustavi, Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizomlar, yo'riqnomalar va qarorlar asosida tartibga solinadi.

Sport klubi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Nodavlat-notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi va "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

1.3. Sport klubi o'z faoliyatini oshkoralik, kollegiallik, o'zaro hurmat, teng huquqlilik, ixtiyoriylik va jamoat fikrini hisobga olish tamoyillari asosida yuritadi.

1.4. Sport klubi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng yuridik shaxs hisoblanadi.

1.5. Sport klubi faoliyat maqsadlariga erishish uchun boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lish, suda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etish huquqiga ega.

1.6. Sport klubi yuridik shaxs sifatida o'z mulkiga, alohida balansiga, o'z nomi aks etilgan muhr va shtamlarga hamda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan bankda o'z milliy va valyuta hisob raqamlariga hamda boshqa o'z faolitiyaga zarur bo'lgan rasmiy belgilari va rekvizitlarga ega bo'lish huquqiga ega.

1.7. Sport klubi o'z faoliyatini Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali amalga oshiradi.

1.8. Sport klubi muassislarining ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim muassasasining barcha fakultetlarida o'zining boshlang'ich tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda Boshlang'ich tashkilotlari) tashkil etish huquqiga ega.

1.9. Sport klubining boshqa tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi yoki a'zolikdan chiqishi Assotsiatsiyaning huquqi hisoblanadi va ushbu harakatlar Assotsiatsiya Ijroiya Qo'mitasi qarori asosida amalga oshiriladi.

1.10. Sport klubining faoliyati nomuayyan muddatga tashkil qilinadi.

1.11. Sport klubi o'z tadbirlarida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i va Davlat gimnidan foydalanadi. Assotsiatsiya bayrog'i, logotipi va qisqartma so'zlari o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin foydalanish xuquqiga ega.

1.12. Sport klubi o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulki bilan javob beradi. Davlat, davlat organlari, korxonalari va muassasalar, ta'sischilari, ishtirokchilari xamda Assotsiatsiya Sport klubining majburiyatlari, qarzlari yuzasidan javob bermaydilar. Xuddi shuningdek, Sport klubi davlat, davlat organlari, korxona, muassasalari, ta'sischilari, ishtirokchilari xamda Assotsiatsiyaning qarzlari va majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

1.13. Sport klub Assotsiatsiya Ustavi hamda mazkur Nizomga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradi.

1.14. Sport klubining rasmiy nomlanishi:

davlat tilida: "O'zbekiston talabalar sporti Assosiasiyasining Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali sport klubi";

rus tili: Спорт клуб Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета Ассоциации Студенческого спорта Узбекистан.

1.15. Sport klubining doimiy faoliyat yurituvchi rahbar organi joylashgan manzil (pochta manzili): 140147, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Professorlar ko'chasi 51-uy

II. Sport klubining maqsad va vazifalari

2.1. Sport klubining asosiy maqsadi:

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalar, professor-o'qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodim-izlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylarini ayniqsa yoshlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Talabalar va o'qituvchilari hamda ularning oila a'zolari uchun jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish, ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularning salomatligini mustahkamlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, talabalarni sport musobaqalarga keng jalb etish;

talabalar o'rtasida Xalqaro olimpiada qadriyatlarini hamda umuminsoniy qadriyatlarni, insonparvarlik, adolatparvarlik, halollik va halol sport kurashini ulug'lash, hurmat qilish hissin tarbiyalash;

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport mashg'ulotlari va musobaqalarni o'tkazish orqali OITS va giyohvandlikka qarshi kurash, shuningdek chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi turli zararli illatlarni oldini olish;

2.2. Sport klubining vazifalari va faoliyati quyidagilardan iborat:

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filialida faoliyat olib borayotgan sport seksiyalari va sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar jadvalini maqbullashtirishga ko'maklashish, har xil sport turlari, eng avvalo sportning olimpiya va milliy turlari bo'yicha yangi qo'shimcha seksiya va guruhlar tashkil etish hisobiga yoshlarni, shu jumladan qizlarni sport bilan shug'ullanishiga yanada kengroq jalb etish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalar o'rtasida iste'dodli yosh sportchilarni aniqlash, yuksak mahoratli sportchilar zahirasini tayyorlash va sport turlarini rivojlantirish ishlarini olib borish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalar o'rtasida turli sport musobaqalar, tadbirlarini o'tkazish orqali seleksiya ishlarini doimiy tarzda yo'lga qo'yilishini hamda yuqori mahoratli sportchilarni tanlab olinishini ta'minlashga ko'maklashish;

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sportni talabalar va murabbiylarning o'quv tizimiga, ish jarayoniga hamda dam olish vaqtlariga joriy qilish;

sport, tinchlik, hamkorlik va o'zaro totuvlik g'oyalarini targ'ib qilish;

Oliy o'quv yurtlari o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalariga talabalarning terma jamoalarini shakllantirish va ularni tayyorlash uchun kuchaytirilgan mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish;

yuksak mahoratli sportchilar zahirasini tayyorlash barobarida sport turlari bo'yicha tashkilotlar, sport turlari bo'yicha federatsiyalari bilan hamkorlikda iqtidorli talaba sportchilar uchun o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish hamda Respublika va xalqaro sport musobaqalarida qatnashishini ta'minlash;

Sport klubi o'z mablag'lari hisobidan sport inshootlarini qurish, qayta tiklash, ta'mirlash, saqlash, ijaraga olish va berish ishlarini amalga oshiradi:

sport, tinchlik, hamkorlik va o'zaro totuvlik g'oyalarini hamda yuqori natijalarga erishgan yosh sportchi va trenerlarning yutuqlarini talaba va o'quvchilar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida davra suhbatlari, seminarlar hamda master-klasslarni uyushtirish;

Sport klubining yetakchi sportchilari, Olimpiya va Osiyo o'yinlari, Jahon chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqalar chempionlari hamda sovrindorlari ishtirokida ko'rgazmali mahorat saboqlari o'tkazilishini tashkil etish;

Sport klubi o'z faoliyatini rivojlantirish bo'yicha dastur va loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun sarmoyador va homiylar bilan hamkorlik qilish;

Ommaviy axborot vositalarini, ro'znoma va jurnallar, o'quv qo'llanma va darsliklar shuningdek, buklet, plakat, dastur taqvim va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi boshqa turdagi bosma mahsulotlarni (tipografiya) chop etish va sotish;

sportchilarni, murabbiylarni, xakamlarni va sport mutaxassislarining ijtimoiy xuquqlarini va manfaatlarini ximoyalash, sport faxriylariga g'amho'rlik qilish, xayriya faoliyatini amalga oshirish;

Sport klub, Samarqand viloyati Turizm va sport boshqarmasi va federatsiyalar bilan xamkorlikda "Universiada" sport musobaqalari, "Yozgi ta'til", va Bayram sanalari munosabati bilan musobaqalar o'tkazish orqali talabalar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ular o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish;

"Universiada" sport musobaqalarini quyi bosqichlarini sifatli o'tishini ta'minlash maqsadida taqvim rejalarini ishlab chiqish hamda musobaqalarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;

Sport klubi sport seksiyalar va sport to'garaklari to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratadi va belgilangan muddatlarda Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasiga taqdim etib boradi;

belgilangan tartibda talabalar, o'qituvchilar va trenerlarning jismoniy tarbiya bo'yicha malakalarini oshirish va ularga metodik yordam ko'rsatish yuzasidan ilmiy, o'quv-amaliy seminarlar tashkil etish;

Sport klub boshlang'ich tashkilotlari o'rtasida o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib va sovrindor bo'lgan hamda iqtidorli sportchi talabalarni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filialida sport turlari bo'yicha terma jamoalar va zahira jamoalari safiga qabul qiladi;

Sport klub boshlang'ich tashkilotlaridagi talabalarining sport sohasidagi o'sish darajasini fakultetlar bo'yicha monitoringini olib borishni yo'lga qo'yish;

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali faoliyati yuzasidan aniq vazifalar belgilashga ko'maklashish;

Oliy ta'lim muassasalarining talabalari ishtirokida o'tkaziladigan ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlariga amaliy, nazariy va uslubiy yordam ko'rsatish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalari o'rtasida yuqori sport natijalariga erishgan sportchi va murabbiylarni Sport klubi tomonidan rag'batlantirish;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalari orasidan sport turlari bo'yicha Respublika terma jamoalari uchun asosiy va zahira tarkibiga malakali sportchilarni tayyorlash hamda turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash;

Sport klubi tomonidan sport turlari bo'yicha terma jamoa a'zolari xisoblangan oliy ta'lim muassasalari talabalarini zaruriy anjom, jihoz, sport kiyimi (ekipirovka), tibbiy-biologik, farmakalogik, farmatsevtik va boshqa taqiqlanmagan tiklanish vositalari bilan ta'minlashni amalga oshirish, shuningdek Respublika va Xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishda ularga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va unda ishtirok etishlarini ta'minlash;

Sport klubi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan va mazkur Nizomdagi maqsad va vazifalarga zid bo'lmagan faoliyatini amalga oshirish bo'yicha ishlarni olib borishi mumkin.

III. Sport klubining huquq va majburiyatlari

3.1. Sport klubi quyidagi huquqlarga ega:

- o'z a'zolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

- ijtimoiy hayotning sport-sog'lomlashtirish masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, bu xususda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

- ommaviy jismoniy tarbiya sport tadbirlari, o'quv-mashg'ulot yig'inlarini, sport bayramlari, qismatkiadalar, festivallar, sport musobaqalar, Butunjahon hamda Osiyo yozgi, qishki "Universiada" sport musobaqalarida ishtirok etish va o'tkazish;

- "Universiada" sport musobaqalarining barcha bosqichlarini o'tkazish va tashkil etishda ishtirok etish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining jismoniy tarbiya va sportga oid qaror loyihasini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

- o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish va belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va tegishli ruxsatnoma yoki litsenziya asosida matbaa va noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

- qonunda belgilangan tartibda o'z ramziy belgilarini ta'sis etadi;

- o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, Konferensiyalar va boshqa tadbirlar o'tkazadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq o'z Nizom maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar, yig'imlar hamda budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa to'lovlar to'lashda belgilangan imtiyozlardan foydalanadi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sport klub faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv-amaliy seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish;

- o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan Assotsiatsiyaga tegishli emblemaga egalik huquqi, shuningdek undan reklama, tijorat va boshqa maqsadlarda foydalanish;

- Sport klubning faoliyati uchun zarur bo'lgan orgtexnika vositalarini xarid qiladi va belgilangan tartibda ijaraga oladi;

- Sport klubi a'zosi bo'lib O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga kirgan sportchilar va ularning trenerlariga homiylik faoliyatini amalga oshirish, o'zaro kelishuvga ko'ra ularning foto tasvirlaridan reklama maqsadlarida foydalanish;

- Sport klubi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.2. Sport klubining majburiyatlari:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Assotsiatsiya Ustavi, Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlangan Nizomlar, yo'riqnomalar va mazkur Nizom talablariga rioya etish va o'z mol-mulki va mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organga Sport klubi o'tkazayotgan tadbirlarga va Sport klubi faoliyati bilan tanishish uchun erkin kirish imkonini berish;

- o'z faoliyatining natijalari hisobotini yuritish;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etish;

- ro'yxatdan o'tkazuvchi organ vakillariga Sport klubi faoliyati bilan Nizom maqsadlariga erishish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilinishi yuzasidan tanishishlariga ko'maklashish;

- Sport klubi ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan sho'ba va qo'shma korxonalarni tuzish, matbuot va boshqa ommaviy axborot to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish;

- litsenziya talab qilinadigan faoliyat turi bilan tegishli litsenziya olgandan so'ng shug'ullanish;

- Sport klubi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

IV. Sport klubi a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari.

4.1. Sport klubiga ushbu Nizomni tan olgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalari, tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilari, magistrantlari, ilmiy xodim-izlanuvchilari, ishchi-xizmatchilar va pedagog murabbiylar hamda Sport klubi faoliyatiga xayrixohlar a'zo bo'lishlari mumkin. Barcha a'zolarining huquq va manfaatlari teng ravishda himoya qilinadi.

4.2. Sport klubiga a'zolari qabul qilish yakka tartibda va jamoaviy tartibda amalga oshiriladi. Sport klubiga yakka tartibda a'zo bo'lganda jismoniy shaxslarning arizalari asosida, jamoaviy tartibda a'zo bo'lganda esa jamoa yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali talabalari va mehnat jamoalari Sport klubining jamoaviy a'zolari bo'lishlari mumkin.

- Sport klubi a'zolari Sport klubi faoliyati to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni tarqatishi, a'zolar o'rtasida nizo va majorolar chiqarishi, Sport klubi obro'sini tushiradigan ma'lumotlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari (internet) orqali tarqatish ma'n etiladi;

4.3. Sport klubi a'zoriga qabul qilish va undan ixtiyoriy ravishda chiqarish Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tartibga solinadi.

4.4. Sport klubi a'zolari teng huquqli bo'lib, ularning huquqlari quyidagilardan iborat:

- Sport klubi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar olishi;
- o'z xohishiga ko'ra Sport klubi a'zoriga kirishi;
- Sport klubining rahbar organlarini saylash va ularga saylanish;
- Sport klubi tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashish;
- Sport klubi faoliyatini yaxshilash bo'yicha rahbar organiga takliflar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuni hamda Assotsiatsiyaning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

- o'z xohishiga ko'ra Sport klubi a'zorigidan chiqishi;

4.5. Sport klubi a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Sport klubining normativ-huquqiy hujjatlarida va ushbu Nizomda belgilangan talablarga amal qilish hamda olgan majburiyatlarni bajarish;

- nodavlat va notijorat tashkilotlariga oid qonun hujjatlari talablariga amal qilishi;

- Sport klubi mol-mulkiga zarar yetkazmaslik;

- Sport klubining boshlang'ich tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan sport seksiyalari va to'garaklariga muntazam qatnashib borish;

- Sport klubi faoliyatini rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish;

- Sport klubi tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazmalar, turli tadbirlarda faol ishtirok etish;

- Sport klubi a'zolari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda faollik ko'rsatish;

- Sport klubining a'zolik badallarini o'z vaqtida to'lab borish.

4.6. Sport klubi Nizomining 4.5-bandida qayd qilingan majburiyatlarni qo'pol ravishda buzgan a'zolar belgilangan tartibda Boshlang'ich tashkilotlarining umumiy yig'ilish qaroriga asosan Sport klubi a'zorigidan chiqarilishi mumkin.

4.7. Sport klubida faxriy a'zolar bo'lishi mumkin. Sport klubi faxriy a'zosi Sport klubi ishida faol ishtirok etib kelgan, Sport klubi ishini har tomonlama qo'llab quvvatlagan, Sport klubi Nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarishga o'z hissasini qo'shib kelgan a'zolari bo'ladi.

- Sport klubi faxriy a'zosi Sport klubi Ijroiya qo'mita yig'ilishida saylanadi. Sport klubi faxriy a'zosi Ijroiya qo'mita yig'ilishida o'z ovozi bilan ishtirok etish xuquqiga ega bo'ladi va a'zolik badallari to'lashdan ozod etiladi.

V. Sport klubining tuzilmasi va rahbar organlari

- 5.1. Sport klubining rahbar organlari qo'nyidagilar hisoblanadi:

- Sport klub Konferensiyasi;

- Sport klub Ijroiya qo'mitasi;

- Sport klub faoliyatini nazorat qilish uchun Nazorat-taftish komissiyasi tashkil qilinadi;

- Sport klub o'ziga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va Assotsiatsiya Ustavi, Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan ta'sis hujjatlar asosida faoliyat yuritadi.

5.2. Sport klubining oliy rahbar organi Konferensiya hisoblanadi. Sport klubi Konferensiyaning navbatdagi yig'ilishi kamida besh yilda bir marta o'tkaziladi.

Zaruriyat yuzaga kelganda, Ijroiya qo'mitaning kamida 50% (ellik) foizining tashabbusi yoki talabiga ko'ra navbatdan tashqari Konferensiya chaqirilishi mumkin.

Konferensiya qarorlari, Ijroiya qo'mita a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

5.3. Sport klubi Konferensiyasini o'tkazish shartlari, talablari va tartibi, Konferensiya majlislariga rahbarlik qilish, Konferensiyaning kun tartibiga masalalarni kiritish, Konferensiyada ovoz berishni o'tkazish tartibi, Konferensiya bayonnomalarini yuritish va tasdiqlash tartibi hamda Konferensiyani tashkil etish va o'tkazishga taalluqli boshqa qoidalar Sport klubi Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

5.4. Navbatdan tashqari Konferensiya majlisida qabul qilingan qarorlarning vakolati navbatdagi Konferensiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning vakolatiga tenglashtiriladi. Navbatdan tashqari Konferensiya majlisini o'tkazish tartibi va unga taalluqli boshqa qoidalar navbatdagi Konferensiyani o'tkazishning tegishli talablariga va boshqa qoidalariga javob berishi kerak.

5.5. Konferensiya chaqirilishi haqida 10 kundan kam bo'lmagan muddatda Ijroiya qo'mita tomonidan e'lon qilinishi hamda tegishli tartibda Sport klubi ijroiya qo'mita a'zolariga va boshlang'ich tashkilotlarga yozma ravishda xabardor qilinishi lozim. Konferensiya chaqirilishi haqidagi xabar rejalashtirilayotgan kun tartibi matnini o'z ichiga olishi kerak.

5.6. Sport klubi Konferensiyasi vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Sport klubi Raisi yoki rais o'rinbosari boshlang'ich tashkilotlar raisining hisobotlarini tinglash va ularning natijasi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

- Nazorat-taftish komissiyasini faoliyatini belgilash, shuningdek ularning hisobotlarini tinglash va natijasi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish;

- Sport klubi faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari hamda uzoq muddatli dasturlarini tasdiqlash, Sport klubini rivojlantirish bo'yicha boshqa muhim masalalarni ko'rib chiqish;

- Sport klubi Ijroiya qo'mitasi a'zolari sonini belgilash va uning a'zolari va Ijroiya qo'mitasi raisini 5 (besh) yil muddatga jamoatchilik asosida lavozimga saylash va jamoatchilik asosida saylangan lavozimdan ozod etish;

- Nazorat-taftish komissiyasini uch kishidan iborat tarkibda 5 (besh) yil muddatga jamoatchilik asosida saylash va ozod qilish;

- Konferensiya O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlariga zid bo'lmagan boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.7. Sport klubi Ijroiya qo'mitasi raisi bir vaqtning o'zida Sport klubi raisi hisoblanadi va jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

5.8. Sport klubi raisi yoki rais o'rinbosari lavozim bo'yicha Konferensiya yig'ilishida qatnashadi, rahbarlik qiladi va belgilangan tartibda ularni imzolaydi.

5.9. Konferensiyalar oralig'idagi davrda Sport klubi faoliyatiga ijroiya qo'mita rahbarlik qiladi.

- Ijroiya qo'mitaga Sport klubi raisi yoki Sport klubi raisining o'rinbosari rahbarlik qiladi. Ijroiya qo'mita yig'ilishlari bir yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

5.10. Sport klubi ijroiya qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

-navbatdagi va navbatdan tashqari Konferensiya chaqirish, uning kun tartibini belgilash hamda, Assotsiatsiyaning Ustavi va konferensiya yig'ilish bayonlari qarorlarini va ta'sis hujjatlari ijrosini ta'minlash;

- Sport klubi raisi o'rinbosari lavozimiga belgilangan tartibda nomzodlarni Assotsiatsiya Ijroiya qo'mitasiga tasdiqdan o'tkazish uchun taviya etadi;

- Sport klubining boshlang'ich tashkilotlarini tashkil etish to'g'risida tegishli qarorlarni qabul qiladi;

-Sport klubining barcha boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning axborot va hisobotlarini tinglash, ularning ish faoliyatiga rahbarlik qilish;

-Sport klubi faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

5.11. Sport klubining joriy faoliyatini boshqarish Sport klubi Ijroiya qo'mita raisi o'rinbosari tomonidan, Boshlang'ich tashkiloti faoliyatini boshqarish boshlang'ich tashkiloti rais o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

5.12. Sport klubinin moliyaviy-xo'jalik faoliyati, mablag'larni maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni Sport klubi Konferensiyasi tomonidan 5 (besh) yil muddatga rais va a'zolaridan tashkil topadigan 3 (uch) kishidan iborat tarkibda saylanadigan Nazorat-taftish komissiyasi amalga oshiradi.

5.13. Sport klubi Raisi quyidagi vakolatlarga ega:

- Sport klubi faoliyatiga jamoatchilik asosida rahbarlik qiladi;

- Assotsiatsiya Ustavi talablari, Konferensiya va Ijroiya qo'mitasi qarorlarini bajarilishini tashkil qilishda va Sport klubning a'zolik badallarini va homiylik mablag'larini shakllantirishga ko'maklashadi hamda ushbu vazifalarni bajarilishini nazorat qiladi.

- Assotsiatsiya Ustavi talablari, Konferensiya va Ijroiya qo'mitasi qarorlarini bajarilishi yuzasidan Sport klubi raisining o'rinbosariga bajarilishi majburiy bo'lgan topshiriqlar beradi.

5.14. Sport klubi raisining o'rinbosari quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi:

- Sport klubining rahbar organlari yig'ilishiga qatnashadi, rahbarlik qiladi va belgilangan tartibda Sport klubi faoliyatiga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlarni imzolaydi;

- Yuqori rahbar organlariga qilinishi zarur bo'lgan ishlari to'g'risida taklif kiritadi;

- Sport klubi nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi;

- Sport klubi manfaatlarini O'zbekiston Respublikasining davlat va nodavlat tashkilotlarida, jumladan davlat hokimiyati organlarida, mahaliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida O'zbekiston Respublikasi hududida ifoda etadi;

- tashkiliy-boshqaruvchilik vazifalarini bajaradi;

- Sport klubi faoliyatining barcha masalalari bo'yicha bo'yruqlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlarni chiqaradi;

- fuqarolik-huquqiy, shuningdek banklarda hisob va boshqa raqamlarni ochish bo'yicha shartnomalarni tuzadi;

- Sport klubi nomidan moliyaviy, bank, hisobot va boshqa hujjatlariga birinchi imzo qo'yish huquqiga ega.

- Sport klubi nomidan ishonchnomalar beradi;

- sport, faxriy va boshqa unvonlarni berilishiga takdimotlar chiqaradi;

-mehnat qonun hujjatlariga muvofiq Assotsiatsiya Ijroiya qo'mita raisining birinchi o'rinbosariga xodimlarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari ko'rish bo'yicha takliflar kiritadi.

-Sport klubi nizomining maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

-Sport klubi raisi o'rinbosari tegishli xududlarda Assotsiatsiya raisining birinchi o'rinbosari vakolatlariga o'xshash vakolatlarga ega bo'ladi.

5.15. Sport klubining Nazorat-taftish komissiyasi

Sport klubining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, mablag'larni maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni Sport klubi Konferensiya tomonidan 5 (besh) yil muddatga rais va a'zolaridan tashkil

topadigan 3 (uch) kishidan iborat tarkibda saylanadigan Nazorat-taftish komissiyasi amalga oshiradi.

Sport klubi nazorat-taftish komissiya raisi va a'zolari Sport klubining boshqa faoliyatlarida qatnashishlari, boshqaruv va rahbar organlari tarkibiga kirishlari mumkin emas.

Sport klubining nazorat-taftish komissiyasi reja asosida, bir yilda kamida bir marta, shuningdek Sport klubi Konferensiyasi yoki ijroiya qo'mitasi qarorlari asosida rejadan tashqari taftish qiladi.

Nazorat-taftish komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Nizom asosida amalga oshiradi.

Nazorat-taftish komissiyasi faoliyati yuzasidan hisobotlar Sport klubi Konferensiya yoki Ijroiya qo'mitasi yig'ilishlarida ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi.

VI. Sport klubining boshlang'ich tashkilotlari

6.1. Sport klubi oliy ta'lim muassasalaridagi barcha fakultetlarda boshlang'ich tashkilotlarni jamoatchilik asosida tashkil qiladi va nazorat qiladi.

- Boshlang'ich tashkiloti jamoatchilik asosida barcha fakultetlarda tashkil qilinadigan jismoniy tarbiya va sport jamoalari xisoblanadi.

- Boshlang'ich tashkiloti Sport klubiga a'zo bo'lish istagini bildirgan 25 nafar a'zosi bo'lgan taqdirda tashkil qilinadi. Boshlang'ich tashkilot tegishliligiga ko'ra Sport klubi xisobida turadi.

- Yakka va jamoaviy tarbiyada a'zolikka qabul qilish arizasi Sport klubi raisi nomiga yoziladi va Boshlang'ich tashkilotining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi;

- Boshlang'ich tashkilotlar mazkur Nizom hamda Sport klublari to'g'risidagi Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomlar asosida faoliyat yuritadi.

6.2. Boshlang'ich tashkilotlarning rahbar organlari qo'yidagilar hisoblanadi:

- Umumiy yig'ilish;

- Jamoa kengashi;

6.3. Umumiy yig'ilish bir yilda kamida bir marotaba chaqiriladi, Jamoa a'zolarining 50% (ellik) foizidan ortig'i ishtirok etganida yig'ilish qonuniy xisoblanadi.

Boshlang'ich tashkilotining ishiga rahbarlik qilish uchun umumiy yig'ilish ochiq ovoz berish yo'li bilan jamoa kengash a'zolari, boshlang'ich tashkiloti raisini saylaydi.

6.4. Boshlang'ich tashkiloti jamoa kengashi 5-7 kishidan iborat tarkibda saylanadi. Jamoa kengashi raisi (jamoatchilik asosida), uning o'rinbosari (jamoatchilik asosida) va faollardan iborat bo'ladi. Boshlang'ich tashkilot jamoa kengashi raisligiga ta'lim muassasa fakulteti dekanini saylash tavsiya qilinadi.

6.5. Boshlang'ich tashkilot jamoa kengashi o'zining kundalik faoliyatida Sport klubi raxbar organlarining ko'rsatmalari va qarorlariga amal qiladi, ularga o'rnatilgan tartibda o'z ishi to'g'risida axborot beradi.

VII. Sport klubining mol-mulki va ularni shakllantirish manbaalari

7.1. Sport klub mol-mulkari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- a'zolik badallari;

- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ravishda bergan homiylik va boshqa turdagi mablag'lari va mulklari;

- budjet va budjetdan tashqari mablag'lar xisobidan;

- Nizomga asosan seminarlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni o'tkazishdan tushgan mablag'lar;

- Sport klubi tarkibida tuzilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatlardan tushadigan daromadlari;

- yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehsonlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning grantlari;

- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa tushumlar.

7.2. Sport klubining a'zolik badallari miqdorini belgilash, sarflash hamda homiylik va boshqa turdagi mablag'larni shakllantirish Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan tartibga solinadi.

-O'quvchi va talabalar orasida yetim, chin yetim, nogironlar, shu bilan birga nafaqadagi shaxslar a'zolik badallari to'lashdan ozod etiladi.

- A'zolik badallari tushumi, homiylik va xarajatlar, shuningdek boshqa turdagi moliyaviy munosabatlar Assotsiatsiya Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida tartibga solinadi.

VIII. Sport klubining hisob va hisoboti

8.1. Sport klubi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida o'z faoliyati natijalarining moliyaviy hisobini amalga oshiradi, statistik hisobot olib boradi va hisobotni ishonchliligini ta'minlaydi.

8.2. Sport klubi belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlari hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa organlarga hisobotlar taqdim etadi.

IX. Sport klubining Nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

9.1. Sport klub Nizomiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Assotsiatsiya Ijroiya qo'mitasi qarori bilan amalga oshiriladi.

9.2. Nizomga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi.

X. Sport klubining faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish tartibi

10.1. Sport klubini qayta tashkil etish Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasi qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.2. Sport klubining faoliyatini to'xtatib qo'yish sud qaroriga asosan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sport klubini tugatish Assotsiatsiyaning Ijroiya qo'mitasi qaroriga binoan yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

10.3. Sport klubini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan organ Sport klubini ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

10.4. Sport klubini tugatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

10.5. Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk mazkur Nizomda ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladi.

10.6. Sport klubi faoliyatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Vujudga kelgan nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmasa, qonunda belgilangan tartibda sud organlari tomonidan hal qilinadi.

10.7. Assotsiatsiyaning ta'sis hujjatlarida o'z ifodasini topmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasining
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining
Samarqand filiali sport klubi rais o'rinbosari**

 **Sh. Mizomov**